SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

HAZRATQULOVA EZOZA ISMAT QIZI

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARGA PSIXOLINGVISTIKA ASOSIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (PSIXOLOGIYA YO‘NALISHI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.3:811.111

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Hazratqulova Ezoza Ismat qizi
Bo‘lajak mutaxassislarga psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (Psixologiya yo‘nalishi misolida) 5

Хазраткулова Эзоза Исмат кизи
Совершенствование методики обучения английскому языку будущих специалистов на основе психолингвистики (на примере направления “Психология”) 25

Khazratkulova Ezoza Ismat kizi
Improving the methodology of teaching English to future specialists based on psycholinguistics (on the example of the psychology majors) 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

HAZRATQULOVA EZOZA ISMAT QIZI

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARGA PSIXOLINGVISTIKA ASOSIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (PSIXOLOGIYA YO‘NALISHI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped12991 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar	**Xafizova Mashxura Aminovna** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar	**Nurmuratov Anvar Yaxshiboyevich** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	Muratkasimova Kamola Shuxratovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “16” noyabr soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66779-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “2” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “2” noyabr dagi № 19 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Сканировано с CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida bo‘lajak mutaxassislarga ingliz tilini o‘qitishda psixolingvistik yondashuvdan foydalanish, tilni o‘zlashtirish jarayonining psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olish, talabalarning idrok etish, xotirada saqlash, qayta ishlash va nutqda qo‘llash jarayonlarini rivojlantirish masalalari zamonaviy xorijiy til ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda psixolingvistik yondashuvni bo‘lajak psixologlarning individual kognitiv imkoniyatlari, kasbiy ehtiyojlari va til o‘zlashtirish xususiyatlari bilan uzviy bog‘lashning metodik asoslari hamda uning ingliz tilini egallash samaradorligiga ta’sirini kompleks baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmagan. Shu sababli psixologiya yo‘nalishi bo‘lajak mutaxassislariga ingliz tilini psixolingvistik asosda o‘qitishning didaktik modeli, metodik ta’minoti va samaradorlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida ingliz tilini psixolingvistik asosda o‘qitish, kognitiv jarayonlar va til o‘zlashtirishning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, individual ta’lim yondashuvlari, raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt vositalarini psixolingvistik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda tilni idrok etish va qayta ishlash, verbal xotira, diqqat, kognitiv yuklama, nutqiy ishlab chiqarish, til o‘zlashtirish motivatsiyasi hamda individual farqlarni hisobga olish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida sun’iy intellekt asosida talabalarning individual psixolingvistik xususiyatlariga moslashuvchi ingliz tili ta’lim tizimlarini yaratish, neyrokognitiv va raqamli diagnostika vositalaridan foydalanish, kasbiy kommunikativ vaziyatlarni psixolingvistik modellashtirish hamda til o‘zlashtirish jarayonining uzoq muddatli samaradorligini monitoring qilishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ta’lim mazmunini mutaxassislik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “…Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Bu borada psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarga ingliz tilini psixolingvistik qonuniyatlar, individual-kognitiv xususiyatlar va kasbiy kommunikativ ehtiyojlar asosida o‘qitish, tilni idrok etishdan uni kasbiy nutqda qo‘llashgacha bo‘lgan jarayonni metodik jihatdan takomillashtirish hamda psixolingvistik yondashuvni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, **2025-yil 21-oktabr**.https://president.uz/uz/lists/view/8582

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda til o‘qitish metodikasiga oid masalalarni o‘rganishga quyidagi olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan: J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.Djusupov, L.T.Axmedova, M.T.Iriskulov, D.U.Xashimova, I.M.Tuxtasinov, G.N.Irmuxamedova G.T.Maxkamova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova, A.Y.Nurmuratov[2] va boshqalar.

O‘zbekistonda psixolingvistika asosida chet tillarini o‘qitish masalasi J.Jalolov, U.Xoshimov, I.Yoqubov, Sh.Usmonova, I.Azimova, E.G‘oziyev,

[2] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2012; Бакиева Г.Х. (2012). Узбекский язык для стран СНГ. Москва: МГЛУ. – 120 с; Джусупов М. (2009). Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. Москва: Русский язык за рубежом. – 230 с; Аҳмедова Л.Т. (2012). Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов: дисс. док. пед. наук. Ташкент. – 320 с; Iriskulov M.T Tilshunoslikka kirish Darslik «Yoshlar matbuoti» Toshkent. 2009. 263 b; Xashimova D.U. Lingvodidakticheskie osnovi izucheniya lakun v kontekste sovremennogo funksionirovaniya russkogo yazika i mejyazikovoy vzaimodeystviy: dis.dok.ped.nauk. –T., 2007. – 209 s.; Tuxtasinov, I.M. (2018) “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” Toshkent. Ped. fan. dok diss. (DSc).–T., 2018. – 203 s.; Ирмухаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов. (на старших курсах экономических вузов): дис.кан.пед.наук. –T., 2008. –208 с.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности: илмий-амалий конф. материал. –T., 2009. –150 с.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. dok. avtoreferati (DSc) . Jizzax-2021. 89 s.; A.E.Rustamova Oliy ta’lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida) ped. fan. dok. avtoreferati (DSc)-Toshkent-2025. 64 s.; A.Y.Nurmuratov Masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi: ped. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024. – 63 s.

D.Hidoyatova, F.Alimov, B.Kulmatov, M.Gulyamova[3] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari, darsliklari va qo‘llanmalari orqali boyitilib kelinmoqda. Ularning izlanishlarida ingliz tili o‘qitish jarayonida psixologik omillar, motivatsiya, emotsional intellekt, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.

MDH davlatlarida ham psixolingvistika masalalari chuqur tadqiq etgan A.Gvozdev, L.Shcherba, E.Passov, I.Zimnaya, A.Potebnya, V.Kostomarov, A.Leontyev, V.Belyanin [4] va boshqa olimlar ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va psixologik muammolarni keng ilmiy tahlil qilganlar. Ularning ishlari tilni o‘rganishda interferensiya, motivatsiya va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan.

Xorijiy mamlakatlarda esa psixolingvistikaning nazariy asoslari chuqur ishlab chiqilgan: Y.Kantor, A.Robak, N.Pronko, J.Miller, Ch.Osgud, J.Lots, G.Feyrbanks, K.Uilson, E.Dibold, J.Grinberg, J.Jenkins, F.Lounsberi, T.Sebeok, N.Chomskiy, E.Lenneberg, V.Levelt, S.Garrod, M.Laytboun, N.Spada, T.Skovel va V.fon Gumboldt[5] kabi olimlarning ilmiy ishlari natijasida psixolingvistikaning

---

[3] Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Hoshimov O‘.H., Yoqubov I.Y. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 302 b.; Usmonova Sh. S., Shamsiyeva Sh. Sh. Psixolingvistika: darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 188 b.; Azimova I.A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023. – 128 b.; G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 496 b.; Хидоятова Д. А. Совершенствование эффективности деятельности повышения квалификации учителей узбекского языка посредством интерактивной модели обучения. – Ташкент, 2023. – 154 с.; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida): ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 41 b.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 45 b.; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 45 b.

[4] Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – Москва: Изд-во АПН РСФСР, 1961. – 471 с.; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – 428 с.; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.; Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – Москва: Просвещение, 1991. – 222 с.; Потебня А.А. Мысль и язык. – Киев: СИНТО, 1993. – 192 с.; Костомаров В.Г., Леонтьев А.А. Жизнь языка: От вятичей до москвичей. – Москва: Педагогика-Пресс, 1994. – 240 с.; Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл; Санкт-Петербург: Лань, 2003. – 287 с.; Белянин В.П. Психолингвистика. – Москва: Флинта, 2003. – 232 с.

[5] Kantor J.R. An Objective Psychology of Grammar. – Bloomington: Principia Press, 1936. – 210 p.; Roback A.A. Language and Psychology. – Cambridge (Mass.): Sci-Art Publishers, 1941. – 312 p.; Pronko N.H. Language and Psycholinguistics // Psychological Bulletin. – 1946. – Vol. 43, №3. – P. 189–239.; Miller G.A. Language and Communication. – New York: McGraw-Hill, 1951. – 298 p.; Osgood Ch.E. Method and Theory in Experimental Psychology. – New York: Oxford University Press, 1953. – 842 p.; Lots J. Language Training and Speech Habits. – London: Longmans, 1958. – 174 p.; Fairbanks G. Voice and Articulation Drillbook. – New York: Harper & Brothers, 1960. – 214 p.; Wilson K.L. Language Behavior and Learning. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 198 p.; Diebold A.R. Incipient Bilingualism // Language. – 1961. – Vol.37, №1. – P.97–112.; Greenberg J.H. Universals of Language. – Cambridge (Mass.): MIT Press, 1963. – 114 p.; Jenkins J.J. Mediated Associations: Paradigms and Situations // Minnesota Studies in Human Learning. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1963. – 156 p.; Lounsbury F.G. Language and Culture. – New York: Crowell, 1964. – 310 p.; Sebeok T.A. Psycholinguistics: A Survey of Theory and Research Problems. – Bloomington: Indiana University Press, 1965. – 286 p.; Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge (Mass.): MIT Press, 1965. – 261 p.; Lenneberg E.H. Biological Foundations of Language. – New York: Wiley, 1967. – 489 p.; Garnham A. Psycholinguistics: Central Topics. – London: Routledge, 1985. – 302 p.; Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества. – Москва: Прогресс, 1985. – 370 с.; Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. – Cambridge (Mass.): MIT Press, 1989. – 566 p.; Garrod S., Sanford A. Discourse Models as Interfaces between Language and the Spatial World // Journal of Semantics. – 1989. – Vol. 6, № 3. – P.

turli nazariyalari vujudga kelgan. Xususan, N.Chomskiyning innatistik nazariyasi[6], S.Krashenning Input Hypothesisi innatistik nazariyasi konsepsiyasi[7], L.Vygotskiyning[8] ijtimoiy-kognitiv yondashuvi hamda zamonaviy tadqiqotchilar A.Ellis va R.Gasslarning[9] kognitiv va ijtimoiy omillarni o‘rganishga qaratilgan ishlari hozirgi psixolingvistika rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Psixolingvistika fan sifatida mahalliy, mintaqaviy va xalqaro darajada keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, aynan psixologiya yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini psixolingvistika asosida o‘qitish metodikasini ishlab chiqish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan va ushbu dissertatsiya ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq “Filologik oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini integrallashuv orqali o‘qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi bo‘lajak mutaxassislarda psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilini o‘qitishda psixolingvistik yondashuvlarning nazariy-metodik asoslarini aniqlash;

auditoriya va mustaqil ta’lim jarayonida psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘rganishning metodik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak mutaxassislarda psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modelini ishlab chiqish;

psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqish, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni olingan.

Tadqiqot predmetini bo‘lajak mutaxassislarda psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakli, hamda vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika

---

147–160.; Lightbown P.M., Spada N. How Languages are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 135 p.; Scovel T. Psycholinguistics. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 136 p.;

[6] Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – P. 45–60.

[7] Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – P. 9–32.

[8] Vygotsky L. S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1934. – P. 65–75.

[9] Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – P. 15.

(ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini o‘qitishning psixolingvistik yondashuvlari kognitiv, motivatsion va emotsional omillarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning til materialini idrok etish, xotirada saqlash va qayta ishlash jarayonlariga ta’siri asosida takomillashtirilib, mazkur jarayonlar psixologiya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy nutqiy faoliyati bilan uyg‘unlashtirilgan;

auditoriya va mustaqil ta’limda ingliz tilini o‘zlashtirish imkoniyatlari ongli idrok etish, mustaqil qayta ishlash, kasbiy vaziyatda qo‘llash va o‘z-o‘zini nazorat qilish faoliyatlarini izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixolingvistik topshiriqlar tizimini o‘quv jarayoniga integratsiyalash asosida kengaytirilgan;

ingliz tilini kasbiy yo‘naltirilgan o‘zlashtirish samaradorligi psixolingvistik yondashuvlarni CLIL, art-terapiya, emotsional texnikalar va interaktiv mashqlar bilan uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilib, “mavzuli dialoglar”, “ranglar bilan ifodalash”, “art bilan modellashtirish”, “hissiy tasavvurlar” va “vizualizatsiya” kabi amaliy texnikalar tizimlashtirilgan;

bo‘lajak mutaxassislarga ingliz tilini o‘qitish metodikasi modeli idrok etish → qayta ishlash → mustahkamlash → kommunikativ qo‘llash ketma-ketligi hamda talabalarning kognitiv, motivatsion va emotsional xususiyatlarini hisobga olish asosida ishlab chiqilib, unda shaxsga yo‘naltirilgan mustaqil ta’limning psixolingvistik mexanizmlari metodik jihatdan ta’minlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

psixologiya talabalarining psixolingvistika asosida xorijiy tilni o‘qitish samaradorligini rivojlantirishga qaratilgan “Bo‘lajak pedagoglarda psixolingvistika asosida xorijiy tilni o‘qitish metodikasi (nofilologik yo‘nalishlar misolida)” nomli elektron dastur ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan;

psixologiya yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini psixolingvistika asosida o‘qitish metodikasining modeli ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan;

psixologiya talabalarning ingliz tilini o‘zlashtirishida psixologik va lingvistik omillarni hisobga oluvchi “Xorijiy til” o‘quv qo‘llanmasi yaratilgan;

psixolingvistik asosda ishlab chiqilgan psycho-clil-art synergy method amaliyotga joriy etilgan va uning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati psixolingvistik yondashuv asosida psixologiya yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning nazariy va metodik asoslari takomillashtirilgani, uning nutqni idrok etish, xotirada saqlash, axborotni qayta ishlash, nutqni shakllantirish

va kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangani hamda bo‘lajak mutaxassislarning individual psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodik modeli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan psixolingvistik yondashuvga asoslangan o‘quv-metodik ta’minot, psixologiya sohasi bilan bog‘langan amaliy topshiriqlar tizimi, metodik tavsiyalar va diagnostik baholash vositalarini ingliz tili mashg‘ulotlariga joriy etish orqali talabalarning ingliz tilidagi nutqni idrok etishi, eslab qolishi, qayta ishlashi, fikrni og‘zaki va yozma ifodalashi hamda kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va bo‘lajak psixolog mutaxassislarning ingliz tiliga oid kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi bo‘lajak mutaxassislarda psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

auditoriya va mustaqil ta’limda ingliz tilini o‘zlashtirish imkoniyatlari ongli idrok etish, mustaqil qayta ishlash, kasbiy vaziyatda qo‘llash va o‘z-o‘zini nazorat qilish faoliyatlarini izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixolingvistik topshiriqlar tizimini o‘quv jarayoniga integratsiyalash asosida kengaytirilganligi haqidagi metodik tavsiyalar “Xorijiy til” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-oktabrdagi 387-son buyruq, 956-364 guvohnoma). Natijada, talabalarning til materiallarini idrok etishi, qayta ishlashi, mustaqil o‘zlashtirishi hamda amaliy nutqiy faoliyatda qo‘llashiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

ingliz tilini o‘qitishning psixolingvistik yondashuvlari kognitiv, motivatsion va emotsional omillarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning til materialini idrok etish, xotirada saqlash va qayta ishlash jarayonlariga ta’siri asosida takomillashtirilib, mazkur jarayonlar psixologiya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy nutqiy faoliyati bilan uyg‘unlashtirilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining OT-F1-049 raqamli “Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2026-yil 13-martdagi 03-172-163-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini o‘qitish jarayonida psixolingvistik omillarni hisobga olish hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning nazariy-metodik imkoniyatlari kengaytirilgan;

chet tilini o‘zlashtirish jarayonlarini optimallashtirishda CLIL texnologiyasi (“kontent va tilni integratsiyalash”, “mavzuli dialoglar”), art-terapiya elementlari (“ranglar bilan ifodalash”, “art bilan modellashtirish”), emotsional texnikalar (“hissiy tasavvurlar”, “vizualizatsiya”) hamda interaktiv psixolingvistik mashqlarni qo‘llashga oid ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar “Xorijiy til” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2025-yil 7-oktabr, 387-son buyruq, №956-364 guvohnoma). Natijada ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida psixolingvistik

yondashuvlarga asoslangan innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo‘lajak mutaxassislarga ingliz tilini o‘qitish metodikasi modeli idrok etish → qayta ishlash → mustahkamlash → kommunikativ qo‘llash ketma-ketligi hamda talabalarning kognitiv, motivatsion va emotsional xususiyatlarini hisobga olish asosida ishlab chiqilib, unda shaxsga yo‘naltirilgan mustaqil ta’limning psixolingvistik mexanizmlari metodik jihatdan ta’minlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Foreign languages club” ilmiy-ommabop ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 4-iyundagi 02-09-1072-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini psixolingvistik yondashuv asosida o‘qitish modelining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilib, ingliz tilini o‘qitishda psixolingvistik omillarning ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ommalashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “Ingliz tilini o‘rgatishda psixolingvistik yondashuvlarning ilmiy-metodik asoslari” nomli birinchi bobida zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida psixolingvistikaning shakllanish bosqichlari, uning nazariy-metodologik asoslari hamda konseptual g‘oyalari tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida uchraydigan psixolingvistik muammolar, ularning kognitiv, lingvokulturologik va kommunikativ mexanizmlar bilan bog‘liq talqinlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Ushbu bobda psixolingvistikaning fan sifatida shakllanish jarayonini belgilagan konseptual yondashuvlar, til va tafakkur munosabati, nutqni ishlab chiqish va qabul qilishning psixik mexanizmlari, ikkinchi tilni o‘zlashtirishga oid kognitiv jarayonlar bo‘yicha nazariy qarashlar yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida psixolingvistikaning shakllanishi va uning ilmiy-konseptual asoslari til va tafakkur munosabatini, nutqning hosil bo‘lishi hamda qabul qilinishi jarayonlarini chuqur

o‘rganuvchi fundamental yo‘nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistika XX asr o‘rtalarida kognitiv psixologiya, neurolingvistika va eksperimental tilshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllandi. Bu jarayonda G. Miller, N. Chomsky, E. Lenneberg, R. Yakobson, D. Slobin, A.Luriya va L. Vygotskiy kabi olimlarning nazariyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi[10]. Tadqiqot davomida N. Chomsky tomonidan ilgari surilgan generativ grammatika va tug‘ma til qobiliyati haqidagi g‘oyalar til o‘zlashtirishning psixik mexanizmlarini ilmiy tahlil qilishga imkon yaratdi[11]. L.Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi, nutq va tafakkur birligiga oid qarashlari psixolingvistikaning ijtimoiy va kognitiv mohiyatini ochib berdi[12]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistikaning shakllanishida inson ongida tilning qay darajada aks etishi[13], til birliklarining psixik qayta ishlanish mexanizmlari, nutqni hosil qilish bosqichlari (intensiya, rejalashtirish, grammatiklashtirish, artikulyatsiya) [14] hamda nutqni qabul qilish jarayonlari (idrok, dekodlash, ma’no berish) bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar markaziy o‘rin egalladi[15].

Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida psixolingvistikaning shakllanishi va ilmiy konseptual asoslari nafaqat jahon ilmida, balki o‘zbek tilshunosligi hamda pedagogik psixologiya sohasida ham izchil o‘rganilib kelinmoqda. O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari psixolingvistikaning nazariy manzarasini mahalliy ta’lim jarayoniga moslashtirish, ikkinchi tilni o‘zlashtirishning psixologik mexanizmlarini milliy pedagogik tajriba bilan uyg‘unlashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi[16]. A.Abduazizov, B.O‘rinboyev, N.Mahmudov, Sh.Safarov [17] kabi tilshunos olimlar tilning kognitiv va psixolingvistik xususiyatlarini, til birliklari va ong o‘rtasidagi munosabatni, nutq hosil bo‘lish jarayonlarini nazariy va eksperimental jihatdan o‘rganganlar. Ularning ishlari tilni idrok qilish, ma’no shakllanishi, til tizimining inson psixik faoliyati bilan bog‘liqligini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonini psixolingvistik yondashuv asosida takomillashtirish masalasida o‘zbek olimlari tomonidan o‘quvchining psixik faoliyatini faollashtiruvchi metodlar[18], kognitiv strategiyalar, kommunikativ yondashuv, o‘yin texnologiyalari[19] va integrativ o‘qitish modellari bo‘yicha amaliy

[10] Miller G. A. Language and Communication. – New York: McGraw-Hill, 1951. – 298 p.; Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – P. 3–15., Lenneberg E. H. Biological Foundations of Language. – New York: John Wiley & Sons, 1967. – 489 p.; Jakobson R. Child Language, Aphasia and Phonological Universals. – The Hague: Mouton, 1968. – 101 p.; Slobin D. I. Psycholinguistics. – Glenview, Illinois: Scott, Foresman and Company, 1971. – 208 p.; Luria A. R. Language and Cognition. – Washington, D.C.: V. H. Winston & Sons, 1982. – 320 p., Vygotsky L. S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – 287p.

[11] Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – P. 3–15.

[12] Vygotsky L. S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986. – P. 86–102.

[13] Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 145–162.

[14] Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. *Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish*. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 144 b.

[15] Yo‘ldoshev B. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – B. 52–68.

[16] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 101–120.

[17] Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.; O‘rinboyev B. Suhbatlashish odobi // O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand, 2006. – 26–27-b.;Mahmudov N. M. Til va nutq. – Toshkent: Fan, 2013. – 180 b.; Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.

[18] Yo‘ldoshev B. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – B. 72–95.

[19] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 110–128.

tadqiqotlar olib borilgan[20]. Bu tadqiqotlarda til materialini qayta ishlash mexanizmlari, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, til o‘rgatishning lingvopsixologik omillari ilmiy asoslangan.

Shu bilan birga ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida kuzatiladigan psixolingvistik muammolar masalasi zamonaviy tilshunoslik, kognitiv psixologiya va ta’lim metodikasi kesishgan nuqtada turadigan murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi[21]. Ikkinchi tilni o‘rganishda kuzatiladigan asosiy muammolardan biri – *interferensiya* hodisasidir. Bu jarayon o‘quvchining ona tili tuzilmalari, talaffuz me’yorlari, grammatik qoidalari va so‘z birikmalarining ikkinchi tilga ko‘chib o‘tishi natijasida yuzaga keladi. R.Fris[22], L.Selinker[23], S.Gass[24] kabi tadqiqotchilar interferensiyani tabiiy psixolingvistik mexanizm sifatida izohlab, uni ikkinchi til o‘zlashtirilishida oraliq tizim (interlanguage)ning shakllanishi bilan bog‘laydilar. Ona tili o‘zbek tili bo‘lgan ta’lim oluvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida fonetik talaffuzdagi qiyinchiliklar, artikulyatsion farqlar, zamon kategoriyalarining qo‘llanishidagi tafovutlar hamda o‘zbek tilida artikl kategoriyasining mavjud emasligi lingvistik interferensiyaning tipik ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi (1-jadvalag qarang):

1-jadval

INTERFERENSIYA TURLARI

Interferensiya turi	**Til komponenti**	**Xatolik namunasi (O‘zbek tilidan ingliz tiliga)**	**Izoh (Sababi)**
Fonetik interferensiya	Talaffuz (phonology)	*Thank you* → **Tank you**	O‘zbek tilida /θ/ tovushi mavjud emas, shuning uchun eng yaqin tovush (/t/) bilan almashtiriladi.
Leksik interferensiya	Lug‘aviy birlik (lexis)	*Strong rain*	O‘zbek tilida “Kuchli yomg‘ir” birikmasi ingliz tilida tabiiy *heavy rain* ga teng.
Grammatik interferensiya	Sintaksis (grammar)	*He school to goes*	O‘zbek tilidagi so‘z tartibi ingliz sintaksisiga noto‘g‘ri o‘tkaziladi.
Orfografik interferensiya	Imlo (orthography)	*accomodation*	O‘zbek tilida yozuv tovush asosida quriladi, inglizcha so‘zlar fonetik asosda xato yoziladi. (to‘g‘risi: accommodation)
Semantik interferensiya	Ma’no (semantics)	*He is cold* → *U sovuq*	Ingliz tilidagi "He is cold" hissiy holat (mehrsiz) bo‘lishi mumkin, o‘zbekcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima noto‘g‘ri talqin beradi.
Pragmatik interferensiya	Muloqot madaniyati	*Give me your pen!* (buyruq)	Ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq shakllari suhbat vaziyati va ijtimoiy munosabatga bog‘liq bo‘lib, rasmiy muloqotda keskin qabul qilinishi mumkin; shu sababli *Could you give me your pen?* kabi muloyim shakllar qo‘llaniladi.

Ikkinchi tilni o‘zlashtirishdagi yana bir muhim psixolingvistik muammolardan biri *kognitiv yuklamaning ortishi*dir. O‘quvchi bir vaqtning o‘zida semantik, grammatik va fonetik ma’lumotlarni qayta ishlab, ularni nutqqa moslashtirishi zarur bo‘ladi. Bu esa diqqatning bo‘linishi va ishchi xotira

[20] Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – B. 96–112.
[21] Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 180–195.
[22] Fries C. C. Teaching and Learning English as a Foreign Language. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1945. – P. 45–60.
[23] Selinker L. Interlanguage. – International Review of Applied Linguistics, 1972. – P. 209–231.
[24] Gass S. Second Language Acquisition: An Introductory Course. – New York: Routledge, 2013. – P. 85–102.

imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog‘liq murakkabliklarni yuzaga keltiradi. A. Beddeley[25] va N. Kovan[26] ishchi xotira modellari til o‘rgatishda yuklamani bosqichma-bosqich kamaytirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, *emotsional-psixologik omillar* “language anxiety”, ijtimoiy bosim, o‘ziga ishonchsizlik va stress – nutq faoliyatini sustlashtiruvchi muammo hisoblanadi. E. Horvits[27] va R. Gardner[28] tadqiqotlarida motivatsiya hamda emotsional holat ikkinchi til muvaffaqiyatining muhim omili sifatida ko‘rsatilgan. Shu sababli zamonaviy lingvodidaktikada differensial o‘qitish, motivatsion yondashuvlar, multimodal materiallar va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.


Auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim jarayonida psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘rganishning pedagogik va metodik imkoniyatlari ta’lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi, kognitiv jarayonlari va emotsional-motivatsion holatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p komponentli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Psixolingvistika fanining kognitiv, motivatsion va emotsional tamoyillariga tayangan holda mustaqil ta’limni tashkil etish ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali, ongli va shaxsga yo‘naltirilgan shaklga keltirish imkonini yaratadi[29].

Dissertatsiyaning “Psixolingvistika asosida psixologiya yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish metodikasi” deb nomlangan ikkinchi bobi psixolingvistik yondashuvga tayangan holda ingliz tilini o‘qitish jarayonining ilmiy-metodik asoslarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda noan’anaviy pedagogik va psixolingvistik texnologiyalar negizida ingliz tilini o‘qitish metodikasining mazmuni va tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislar uchun psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiy elementlari, funksional mexanizmlari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan. Bobda, shuningdek, psixolingvistik yondashuvlar asosida ingliz tilini integrativ o‘qitish usullarining nazariy-metodik xususiyatlari, ularning psixologiya yo‘nalishidagi talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni, amaliy samaradorligi va innovatsion imkoniyatlari chuqur ilmiy tahlil qilingan.

Noan’anaviy pedagogik va psixolingvistik texnologiyalar negizida ingliz tilini o‘qitish metodikasining mazmuni va tamoyillari zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotining integrativ yondashuvlariga tayangan holda shakllanadi. Bunday metodika an’anaviy gramatika-markazlashgan yondashuvdan farqli o‘laroq, til o‘rganish jarayonini insonning kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishni ko‘zda tutadi. Psixolingvistika fanining so‘nggi yutuqlari til materialini qabul qilish, uni idrok qilish, xotirada

[25] Baddeley A. D. Working Memory. – Oxford: Oxford University Press, 1986. – P. 34–58.
[26] Cowan N. Working Memory Capacity. – New York: Psychology Press, 2005. – P. 25–40.
[27] Horwitz E. K. Foreign Language Classroom Anxiety. – Modern Language Journal, 1986. – P. 125–132.
[28] Gardner R. C. Motivation and Second Language Acquisition. – New York: Peter Lang, 2001. – P. 10–25.
[29] Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 25–40.


qayta ishlash[30] va real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini berganligi sababli, ingliz tilini o‘qitishda noan’anaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilib kelmoqda[31]. Ushbu bobda “Psixolingvistik tamoyillarga asoslangan ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli” ishlab chiqilgan (1-rasmga qarang):



1-rasm. Bo‘lajak mutaxassislarda psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli

[30] Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 20–35.
[31] Yo‘ldoshev B. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – B. 90–105

Bo‘lajak psixolog-mutaxassislarning ingliz tilini ongli, tizimli va psixologik mexanizmlar bilan uyg‘unlashgan tarzda o‘zlashtirishini ta’minlovchi kompleks pedagogik konstruktsiya sifatida ishlab chiqilgan. Modelning asosiy g‘oyasi psixolingvistikaning kognitiv, emotsional, motivatsion va kommunikativ mexanizmlarini integratsiyalash orqali ta’lim mazmuni, o‘qitish texnologiyalari va baholash jarayonini yangicha metodik yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Modelning markazida psixolingvistik tamoyillar turib, ular o‘quvchining tilni qabul qilish, qayta ishlash, xotirada saqlash va nutq jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini yuksaltirishga qaratilgan. Ushbu tamoyillar asosida ingliz tilini o‘qitishning mazmuni, jarayonlari va metodik vositalari qayta ko‘rib chiqilib, psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning individual o‘zlashtirish xususiyatlariga moslashtirilgan. Modelning yuqori qismida ta’limning mohiyatini belgilovchi maqsad bloki joylashgan bo‘lib, unda ingliz tilini psixolingvistika tamoyillariga asoslangan holda o‘qitish, uning samaradorligini aniqlash va til o‘rganishda psixologik omillarning rolini aniqlash belgilangan. Modelda berilgan maqsadni amalga oshirish uchun dastlab tashkiliy tayyorgarlik bosqichi o‘tkazilib, unda talabalarning ingliz tili ta’limiga munosabati, psixolingvistik jarayonlarning o‘rni, motivatsiya diagnostikasi va psixologik tayyorgarligi aniqlanadi. Shu bosqichda art-terapiya, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va motivatsion metodlarni tanlash amalga oshiriladi. Modelning metodik asosini metodologik yondashuvlar tizimi tashkil etadi. U to‘rt komponentdan: tashkiliy, metodologik-texnik, kommunikativ va psixolingvistik yondashuvlardan iborat bo‘lib, har biri talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini faollashtirishga, multimodal idrokni shakllantirishga va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Yondashuvlar bilan bir qatorda modelning tamoyillar tizimi yo‘nalishli, shaxsga yo‘naltirilgan, o‘zaro aloqadorlikka ega, self-study jarayonlari bilan uyg‘unlashtirilgan hamda psixolingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik tamoyillar bilan boyitilgan. Modelning funksional markazini jarayonli metodik komponent tashkil etadi. Bu komponent pedagogik jarayonning bosqichlari motivatsion-qiyosiy, ma’lumot olish, kognitiv qayta ishlash, ijodiy faoliyat va refleksiv baholash jarayonlari bilan uyg‘unlashgan. Har bir bosqich psixolingvistik qonuniyatlarga tayangan holda loyihalashtirilgan bo‘lib, CLIL, art-terapiya, “Psycho-CLIL-Art Synergy Method” kabi innovatsion metodlar orqali talabalarning tilni o‘zlashtirish faolligini kuchaytiradi. Quyidagi rasmda psixolingvistik yondashuv asosidagi dars bosqichlari berilgan (2-rasmga qarang):



2-rasm. Psixolingvistik yondashuv asosidagi dars bosqichlari modeli

Modelning amaliy qismi shakllantirish texnologiyasi va shakllantirish darajalari bilan chegaralangan bo‘lib, ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalarning motivatsiyasi oshishi, emotsional muvozanati, til materiallarini qayta ishlash tezligi, multimodal fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Bu jarayonda rasmli materiallardan foydalanish, emotsional qo‘llab-quvvatlash, psixologik yengillik elementlari, kreativ vizualizatsiya va rolli modellashtirish texnikalari muhim o‘rin tutadi.

Modelning yakuniy bosqichi natijaviy baholash komponenti ta’lim oluvchining psixolingvistik yondashuv asosida ingliz tilini o ‘zlashtirish darajasini aniqlash va tajriba-sinov smaradorligini baholashga qaratilgan. Baholash jarayonida talabalarning rivojlanish darajasi perseptiv-produktiv, kognitiv-lingvistik va metakognitiv-affektiv mezonlar asosida aniqlandi. Perseptiv-produktiv mezon talabalarning ingliz tilidagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda nutqiy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini; kognitiv-lingvistik mezon esa til birliklarini qayta ishlash, kasbiy terminlarni qo‘llash va kommunikativ vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini; metakognitiv-affektiv mezon o‘z o‘rganish faoliyatini boshqarish, motivatsiya va emotsional barqarorlik darajasini baholashga yo‘naltirildi. Shu bilan birgalikda har bir mezon 1-3 ball oralig‘ida baholanib, umumiy natija 9 ballik mezonli baholash tizimi asosida aniqlandi. Natijalarga ko‘ra talabalarning psixolingvistik kompetensiyasi yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratildi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Psixolingvistik asosda xorijiy tilni o‘rganish rivojlanishini baholash mezoni (1,4-bosqich talabalari uchun)

Mezonlar	Yuqori daraja (3 ball)	O‘rta daraja (2 ball)	Past daraja (1 ball)
I-MEZON. Psixolingvistik qabul qilish (Listening va Reading asosida) va ishlab chiqish jarayonlarining rivoji	Talaba chet tilidagi nutqni tez va aniq qabul qiladi, fonetik va grammatik birliklarni avtomatik qayta ishlaydi, murakkab sintaktik konstruksiyalardan izchil foydalanadi, g‘oyadan nutqqa o‘tish jarayoni barqaror, semantik bog‘liqlik va kohezion to‘liq ta’minlangan.	Nutqni qabul qilishda asosiy mazmunni tushunadi, biroq murakkab strukturalar qayta ishlanishida sekinlashuv kuzatiladi; nutq izchil bo‘lsa-da, grammatik va leksik xatolar uchraydi, kognitiv ishlov chala avtomatlashtirilgan.	Nutqni qabul qilishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi, kontekstual ma’nolarni ajratishda qiynaladi, nutq ishlab chiqish jarayoni sekin, grammatik xatolar ko‘p, semantik izchillik buziladi.
II-MEZON. Kognitiv strategiyalar va tilni ongda qayta ishlash darajasi	Talaba ishchi xotira resurslaridan samarali foydalanadi, analogiya, transfer, inferensiya kabi strategiyalarni mustaqil qo‘llaydi, kontekstual ma’nolarni tez aniqlaydi, til birliklari o‘rtasida mantiqiy bog‘lanishlar hosil qiladi.	Strategiyalardan foydalanadi, ammo ularning barqarorligi sust, murakkab til materialini qayta ishlashda ba’zan kognitiv to‘siqlar yuzaga keladi, konteksni tahlil qilish darajasi o‘rtacha.	Strategiyalarni amalda qo‘llay olmaydi, ishchi xotiraning cheklanganligi sababli til birliklarini qayta ishlashda qiyinchilik seziladi, kontekstual ma’noni aniqlashda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi.
III-MEZON. Metakognitiv boshqaruv va emotsional-psixologik tayyorgarlik darajasi	Talaba o‘z nutq faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, monitoring qiladi va xatolarni to‘g‘rilaydi; kommunikativ vaziyatga mos nutq registrini o‘zgartira oladi, chet tilida muloqotda psixologik barqaror, yuqori motivatsiyaga ega.	Nutq faoliyatini qisman boshqaradi, ayrim xatolarni tuzatadi, lekin registr tanlashda barqarorlik yetarli emas; muloqotda ba’zan hayajon seziladi, motivatsiya o‘rtacha darajada.	O‘z nutqini nazorat qila olmaydi, xatolarni sezmaydi, muloqotdan qochadi, chet tilida nutq jarayonida kuchli hayajon va psixologik tormozlanish kuzatiladi, motivatsiya past.

Modelning umumiy natijasi sifatida bo‘lajak psixolog-mutaxassislar uchun ingliz tilini o‘qitishda psixolingvistik yondashuvlardan, aynan CLIL va art-terapiya metodlaridan foydalanish ularning til o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirishi va psixologik barqaror, ijodkor va kommunikativ kompetent kadrlarni tayyorlashga zamin yaratishi ilmiy asosda ko‘rsatiladi. Ayniqsa, til o‘rganish mutaxassisligi bilan bog‘liq bo‘lmagan nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun bu ehtiyoj yanada dolzarbdir. Chunki bu toifadagi ta’lim oluvchilar chet tilini lingvistik maqsaddan ko‘ra ko‘proq kommunikativ, kasbiy va akademik faoliyat vositasi sifatida o‘zlashtirishadi[32]. Bu yerda CLIL texnologiyasi psixolingvistik jihatdan tilni mazmun orqali o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kontseptual bilimlar bilan lingvistik ko‘nikmalarni birlashtiradi. CLILning “mazmun va tilni integratsiyalash” mexanizmi o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzu haqida ingliz tilida fikrlashga undaganda, talaba ongida semantik bog‘liqlikni kuchayib, xotiraning semantik va epizodik komponentlarini bir vaqtda faollashadi. “Mavzuli dialoglar” esa psixolingvistik jihatdan real kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qiladi: o‘quvchi ma’lumotni qabul qilish (input), uni qayta ishlash (processing) va nutq orqali ifoda etish (output) jarayonlarini tabiiy tarzda bajaradi [33]. Art-terapiya metodlari esa chet tilini o‘rganishda emotsional xavfsizlik muhitini yaratib, emotsional xotira, vizual tasvirlar va ijodiy tafakkur orqali lingvistik birliklarning mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi. “Ranglar bilan ifodalash” mashqlari til materialining emotsional va vizual kodlashini kuchaytiradi, bu esa psixolingvistika nuqtai nazaridan xotiraga tez va samarali joylashni ta’minlaydi. “Art bilan modellashtirish” o‘quvchilarning mavzuga doir obrazlar yaratib, keyinchalik ushbu obrazlarni og‘zaki yoki yozma nutqda ifodalashiga xizmat qiladi; bu jarayon multimodal o‘zlashtirish mexanizmlarini faollashtiradi [34].

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Bo‘lajak mutaxassislarda psixolingvistika asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi” deb nomlanib, mazkur bobda psixolingvistika asosida xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili hamda tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning statistikasi tahlil etilgan. Tajriba ishlarining har bir bosqichi uchun aniq maqsad va vazifalar belgilanib, ularning to‘la bajarilishiga e’tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlari quyidagi 3 bosqichda olib borildi:

